

5/2024,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00073)



KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ASOSIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI

Igitov Jurabek Kuzibekovich

Mustaqil tadqiqotchi Toshkent davlat transport universiteti

Email: igitov2021@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss5/586

Annotasiya

Ushbu maqolada korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalar faoliyatini va loyihalarini moliyalashtirishning huquqiy asoslari, milliy qonunchilik va xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilgan. Xususan maqolada dastavval korporativ qimmatli qog'ozlarni mazmun-mohiyati, emissiya qilish va muomalaga chiqarishning xalqaro tartib-qoidalari va normativ talablari, IOSCO ning “Qimmatli qog'ozlarni tartibga solishning maqsadlari va tamoyillari” ga asosan qimmatli qog'ozlar va derivativlar bozorlari bozor iqtisodiyotining o'sishi, rivojlanishi va mustahkamlanishi uchun juda muhimli haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qimmatli qog'ozlar, IOSCO, Korporativ, Investorlarni, NYSE, NASDAQ, Transchegara, Kompaniya, birjalari, korporativ obligatsiyalar.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ КОРПОРАТИВНЫХ ЦЕННЫХ БУМАГ

Игитов Джурабек Кузибекович

Независимый исследователь, Ташкентский государственный университет путей сообщения

Аннотация

В данной статье рассмотрены правовые основы финансирования деятельности и проектов предприятий на основе корпоративных ценных бумаг, национальное законодательство и опыт зарубежных стран. В частности, в статье сначала рассматривается содержание корпоративных ценных бумаг, каковы требования международных процедур и нормативов эмиссии и обращения, международные организации комиссий по ценным бумагам (IOSCO), в соответствии с “целями и принципами регулирования ценных бумаг” рынка ценных бумаг и деривативов имеют решающее значение для роста, развития и укрепления рыночной экономики подробно описано.

Ключевые слова: акции, IOSCO, корпоративные, инвесторы, NYSE, NASDAQ, Transchegara, компании, биржи, корпоративные облигации.

ORGANIZATIONAL AND LEGAL BASIS OF FINANCING ENTERPRISES BASED ON CORPORATE SECURITIES

Igitov Jurabek Kuzibekovich

Independent researcher, Tashkent State Transport University

Abstract


This article examines the legal basis for financing the activities and projects of enterprises based on corporate securities, national legislation and the experience of foreign countries. In particular, the article first examines the content of corporate securities, what are the requirements of international procedures and standards for issuance and circulation, international organizations of securities commissions (IOSCO), in accordance with the “goals and principles of securities regulation”, securities and derivatives markets are crucial for the growth, development and strengthening of the market economy in detail described.

Keywords: stocks, IOSCO, corporate, investors, NYSE, NASDAQ, Transchegara, companies, exchanges, corporate bonds.

Kirish

Korporativ qimmatli qog'ozlar iqtisodiy atamasiga milliy qonunchiligimizda aniq izoh keltirilmagan. Shunday bo'lsada ko'pgina qonun hujjatlarida korporativ qimmatli qog'ozlar atamasidan foydalanilgan.

Dastavval korporativ qimmatli qog'ozlarni mazmun-mohiyati, emissiya qilish va muomalaga chiqarishning xalqaro tartib-qoidalari va normative talablarini o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik. Qimmatli qog'ozlar komissiyalarining xalqaro tashkilotining (IOSCO) “Qimmatli qog'ozlarni tartibga solishning maqsadlari va tamoyillari” ga asosan qimmatli qog'ozlar va derivativlar bozorlari bozor iqtisodiyotining o'sishi, rivojlanishi va mustahkamlanishi uchun juda muhimdir[1]. Ular korporativ tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi, yangi g'oyalardan foydalanishni moliyalashtiradi va moliyaviy risklarni boshqarishga yordam beradi.



1-rasm. IOSCO talqiniga ko'ra korporativ qimmatli qog'ozlar tarkibi

IOSCO tomonidan korporativ qimmatli qog'ozlarga to'g'ridan-to'g'ri tarif berilmagan bo'lsada, tashkilotning normative-huquqiy hujjatlariga ko'ra “korporativ qimmatli qog'ozlar” odatda korporatsiyalar yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kapitalni jalb qilish uchun chiqarilgan moliyaviy vositalarni anglatadi. Ushbu qimmatli qog'ozlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin (1-rasm).



2-rasm. Korporativ qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq savdo qoidalarini

IOSCOning a'zolari bo'lgan mamlakatlar fond birjalarida korporativ qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq savdolar tashkilotning qoidalariga asosan o'rnatiladi va quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi (2-rasm):

Ma'lumotni oshkor qilish talablari: IOSCO korporativ qimmatli qog'ozlar emitentlari tomonidan ma'lumotlarni to'g'ri, o'z vaqtida va har tomonlama oshkor etilishi muhimligini ta'kidlaydi. Bu emitentning moliyaviy ahvoli, faoliyati, boshqaruvi va qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday moddiy hodisalar yoki risklar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Korporativ boshqaruv: IOSCO korporativ qimmatli qog'ozlar emitentlari o'rtasida yaxshi korporativ boshqaruv amaliyotini qo'llab-quvvatlaydi. Bu Kuzatuv kengashi tarkibi, boshqaruv xodimlari uchun rag'bat va mukofot pullari, aksiyadorlar huquqlari va qarorlar qabul qilish jarayonlarida shaffoflik bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Investorlarni himoya qilish: IOSCO investorlarni ishonchli investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun yetarli ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash orqali himoya qilishga intiladi. Bu korporativ qimmatli qog'ozlarni sotish va muomalada aylanishi bilan bog'liq qoidalar, shuningdek, firibgarlik, bozorni manipulyatsiya qilish va boshqa suiiste'mol amaliyotlarning oldini olish choralari o'z ichiga olishi mumkin.

Bozor yaxlitligi: IOSCO korporativ qimmatli qog'ozlar bozorlarining yaxlitligi va samaradorligini saqlashga intiladi. Bu savdo amaliyotini tartibga soluvchi qoidalar va standartlarni, bozorni nazorat qilishni, ichki savdo va bozorni suiiste'mol qilishning boshqa shakllarini oldini olishni o'z ichiga oladi.

Transchegaraviy muammolar: Qimmatli qog'ozlar bozorlarining global xarakterini hisobga olgan holda, IOSCO korporativ qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish bilan bog'liq transchegaraviy muammolarni hal qiladi. Bu turli yurisdiksiyalardagi qimmatli qog'ozlarni tartibga soluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni, shuningdek, transchegaraviy takliflar va listinglarni osonlashtirish uchun tartibga soluvchi talablarni uyg'unlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Bibliografik tahlil

Xalqaro moliyaviy bozorlar hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lgan yana bir tashkilot bu AQShning Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi (U.S. Securities and Exchange Commission, SEC) bo'lib, dunyodagi o'zining sohasi bo'yicha yetakchi va yirik kompaniyalar qimmatli qog'ozlari aynan AQSh qimmatli qog'ozlar bozori (NYSE, NASDAQ) da oldi-sotdi qilinishi sababli

deyarli barcha mamlakatlarning hukumatlari bu tashkilotning tartib-qoidalari asosida savdo qilishga majbur.

SEC o'z qoidalari yoki yo'riqnomalarida "korporativ qimmatli qog'ozlar" ning mustaqil ta'rifini aniq keltirmagan. Buning o'rniga, SEC qoidalari qimmatli qog'ozlarning har xil turlarini, shu jumladan korporatsiyalar tomonidan chiqarilganlarni o'z ichiga oladi.

Xususan, SECning qimmatli qog'ozlarga ta'riflari keng va inklyuziv bo'lib, keng doiradagi vositalarni qamrab oladi. 1933 yildagi “Qimmatli qog'ozlar to'g'risida”gi qonun va 1934 yilgi “Qimmatli qog'ozlar birjasi to'g'risida”gi qonunda ko'zda tutilgan “qimmatli qog'oz” tushunchasi, avval aytib o'tilganidek, o'z doirasidagi korporativ qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi. “Qimmatli qog'ozlar to'g'risida”gi qonunning 2(a)(1) qismiga muvofiq[2]: “Qimmatli qog'oz deganda har qanday banknota, aksiya, g'aznachilik qog'ozlari, fyuchers, svop, obligatsiya, obligatsiya, qarzdorlik guvohnomasi, foizlar sertifikatini yoki foydani taqsimlash bo'yicha har qanday bitimda ishtirok etish, garov-trast sertifikatini, obuna sertifikatini, o'tkaziluvchi aksiya, investitsiya shartnomasi, ovoz berish huquqiga ega ishonch sertifikatini, qimmatli qog'ozlar uchun depozit sertifikatini, neft, gaz yoki boshqa foydali qazilmalarga bo'lgan lotli bo'linmaydigan ulush, har qanday qimmatli qog'ozlar bo'yicha har qanday sotish, sotib olish, opsion yoki imtiyoz, qimmatli qog'ozlar guruhi yoki indeksi yoki milliy qimmatli qog'ozlar birjasida chet el valyutasiga oid har qanday put, koll opsionlar yoki imtiyozlar yoxud umumiy holatda, "qimmatli qog'oz" deb nomlanuvchi har qanday foiz yoki vosita yoki yuqorida aytilganlarning har qandayiga qiziqish yoki ishtirok etish to'g'risidagi har qanday sertifikat, vaqtinchalik yoki oraliq davrdagi sertifikat, warrant yoki kafolat yoki obuna bo'lish yoki sotib olish huquqi.”

Ushbu ta'rif korporativ qimmatli qog'ozlarning har xil turlarini, shu jumladan aksiyalarni (oddiy va imtiyozli), obligatsiyalarni va korporatsiyalar tomonidan investitsiya maqsadida chiqarilgan boshqa moliyaviy vositalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolaning metodologiyasida analiz va sintez, ilmiy abstraksiya, deduksiya, tasniflash, umumlashtirish, qiyosiy, nazariy talqin va tahliliy usullardan foydalanilgan, bibliografik o'rganish natijasida korporativ qimmatli qog'ozlarning O'zbekistonda rivojlanish tarixi, o'zbek fond bozorining tahskiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada xalqaro standartlar va normativ hujjatlar, olimlarning ilmiy davriy nashrlardagi izlanishlari va “Toshkent” Respublika fond birjasi rasmiy veb-sahifalaridan olingan ma'lumotlardan foydalanilgan.

Tahlil

Milliy qonunchiligimizda korporativ qimmatli qog'ozlar iqtisodiy atamasiga berilgan yaxlit izoh mavjud emas. Shunday bo'lsada, qimmatli qog'ozlarning barcha turlari haqida, xususan, xo'jalik jamiyatlari tomonidan emissiya qilinadigan qimmatli qog'ozlar to'g'risida batafsil izoh keltirilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz) ma'lumotlariga ko'ra “korporativ qimmatli qog'ozlar” atamasi birinchi bor O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi ikkinchi qismi 3-kichik bo'limi 29-bobi 386-moddasi 3-bandining sharhida keltirilgan bo'lib [3], unga ko'ra “Ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunda nazarda

tutilgan hollarda ayrim turdagi tovarlarni olish-sotishning o'ziga xos jihatlari qonunchilik bilan belgilanadi. Sharh qismi: ... O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi 285-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi hududida qiymatli qog'ozlar bilan bitishuvlar tuzish va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi nizom, “Uyushgan birjadan tashqari bozorda korporativ qiymatli qog'ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom” (ro'yxat raqami: 1384).” Biroq, Nizomni o'zini ochib qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qiymatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2004 yildagi “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qiymatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”[4] buyrug'ining na oldingi tahrirlarida, na amaldagi tahririda korporativ so'zi ishlatilmaganini aniqlash mumkin.

Mazkur iqtisodiy atama haqiqatda birinchi marta o'z ma'nosida bugungi kunda o'z kuchini yo'qotgan “Qiymatli qog'ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasining qonuni bo'lib [5], unga ko'ra “korporativ qiymatli qog'ozlar — xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan naqd yoki naqd bo'lmagan holda chiqarilgan qiymatli qog'ozlardir”. Zamonaviy dunyoda qiymatli qog'ozlar faqatgina naqdsiz ko'rinishda emissiya qilinishi oqibatida bu hujjat o'z dolzarbligini yo'qotgan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2000-yil 21-martdagi “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-2564-son Farmoniga asosan “... O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligining O'zbekiston Banklari uyushmasining “Omonat himoya” sug'urta Jamg'armasi negizida aholi jamg'armalari jamoa sug'urta Jamg'armasi tuzilib, uning asosiy vazifalaridan biri sifatida mablag'larni ishonchli yuqori likvidli davlat va korporativ qiymatli qog'ozlar hamda bank depozitlariga sarmoyalashning eng maqbul strategiyasini amalga oshirish” belgilangan [6]. Demak, mazkur farmonga asosan korporativ atamasi aslida davlat qiymatli qog'ozlarini xo'jalik yurituvchi subyektlar qiymatli qog'ozlaridan farqlash uchun ishlatilishini anglashimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi sobiq Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qiymatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2004-yil 6-avgustdagi “Korporativ qiymatli qog'ozlar bilan repo bitishuvlarni amalga oshirish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'i [7] ilovasi dastlabki tahririning rus tilidagi matnida (ilova o'zbek tilida keltirilmagan) “korporativ qiymatli qog'ozlar — xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan naqd yoki naqd pulsiz shaklda chiqarilgan qiymatli qog'ozlar” izohi yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi “Qiymatli qog'ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to'g'risida”gi Qonunida berilgan izoh bilan bir xil bo'lib, Markaz direktorining 2008 yil 3 oktyabrdagi buyrug'i bilan o'zgartirilgan va hujjat matnidagi barcha “korporativ” so'zlari olib tashlangan.

Demak, korporativ qiymatli qog'ozlarga yaxlit atama sifatida milliy qonunchilikda yaxlit tarif berilmagan, berilganlari esa bugungi kunga kelib o'z kuchini va mohiyatini yo'qotgani uchun qonun hujjatlarida aks ettirilmagan.

Umuman olganda, milliy qonunchiligimizda qiymatli qog'ozlar va davlat qiymatli qog'ozlari alohida iqtisodiy atama sifatida talqin qilinishi qonun hujjatlariga kiritilgan bo'lib, bu

milliy qonunchiligimizda korporativ qimmatli qog'ozlar atamasi ishlatilmasada qimmatli qog'ozlar atamasi aynan shu ma'noda qo'llanilganidan dalolat beradi (3-rasm).

Qimmatli qog'ozlar


- hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi

Davlat qimmatli qog'ozlari

- O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat g'aznachilik obligatsiyalari, xalqaro obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari

3-rasm. Qimmatli qog'ozlar va davlat qimmatli qog'ozlariga qonunchilikda berilgan izohlar

Demak, korporativ qimmatli qog'ozlar qonun hujjatlarida qimmatli qog'ozlar atamasi orqali izohlanadi. Shunday bo'lsada, qonunchilikning “Asosiy tushunchalar” qismiga “korporativ” so'zining qayta kiritilishi qonunlarning mazmunini boyitadi degan fikrdamiz. Mazkur atamani asl mohiyatini ochiqdanganidan so'ng, milliy qonunchilikda korporativ qimmatli qog'ozlarning turlari haqida to'xtalib o'tishni lozim topdik.



4-rasm. Korporativ qimmatli qog'ozlar asosiy turlarining milliy qonunchilikdagi izohlari

Mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy faoliyatiga oid bo'lgan eng asosiy qonun - O'zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida” gi qonunida korporativ qimmatli qog'ozlarning asosiy turlariga quyidagicha izoh keltirilgan (4-rasm) [8].

Demak, milliy qonunchilik normalarida korporativ qimmatli qog'ozlarning barcha turlari, ularning izohlari, o'ziga xos xususiyatlari va qanday turlari mavjudligi haqida batafsil normalar keltirilgan.

Kompaniyalar o'z faoliyatlarini rivojlantirish va kengaytirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va boshqa maqsadlarda korporativ qimmatli qog'ozlardan moliyaviy instrument sifatida foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga milliy qonunchilikda ushbu qimmatli

qog'ozlarni emissiya qilishga oid bir qancha talablar o'rnatilgan bo'lib, ushbu instrumentlardan foydalanishni xohlagan har bir kompaniya bu qoidalarga amal qilishlari shart.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi Bosh direktorining “Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” gi buyrug'iga asosan korporativ qimmatli qog'ozlarni - aksiyalar, obligatsiyalar va veksellarni chiqarishga oid alohida tartib-qoidalar o'rnatilgan (1, 2-jadvallar) [9].

1-jadval

Aksiyalardan moliyalashtirish instrumenti sifatida foydalanish uchun ularni emissiya qilishga oid qoidalar [9]

Qonun normalari	Izoh
Emitent ustavida aksiyadorlar tomonidan sotib olingan aksiyalarning (joylashtirilgan aksiyalar) tiplari, soni va nominal qiymati belgilangan bo'lishi kerak.	Emitentning ustav fondi shakllanayotgan paytda uning ta'sischilari o'rtasida qanday aksiyalar (oddiy va imtiyozli) taqsimlangani, har bir aksiyadorning ulushidan iborat bo'lgan jami ustav fondi va bir dona aksiyaning nominal bahosi keltirilgan bo'lishi kerak. <i>Misol uchun, AA aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi jami qiymati 1 000 000,0 (bir million) so'm bo'lgan qiymati 1 so'mdan bo'lgan bir millionta oddiy aksiyadan iborat.</i>
Emitent ustavida emitent joylashtirilgan aksiyalarga (e'lon qilingan aksiyalar) qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan aksiyalarning soni, nominal qiymati va tiplari belgilanishi mumkin. Ustavda ushbu Qoidalar mavjud bo'lmaganda emitent qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.	Kompaniya zarurat tug'ilganda qo'shimcha aksiyalar chiqarish huquqiga ega. Faqat bu kompaniya ustavida belgilangan bo'lishi kerak. Odatda kengayishni maqsad qilgan kompaniya qo'shimcha aksiyalarni chiqarib qo'shimcha mablag'larni jalb qiladi. Agarda kompaniya qo'shimcha aksiyalarni chiqargunga qadar fond birjasida listingdan o'tmagan bo'lsa, unda IPO mexanizmi orqali bozorga kirib, faoliyati uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilishi mumkin. Bunda qo'shimcha chiqariladigan aksiyalarning soni, turi va nominal qiymati belgilanishi kerak. <i>Misol uchun, “Solutions Lab” AJ (keyingi o'rinlarda Jamiyat deb yuritiladi) 2023-yil 20-sentabrda 8 000 000 dona aksiyalarning qo'shimcha chiqarilishi ro'yxatga olinganligi haqida xabar beradi. Ushbu emissiya aksiyalarini joylashtirish nominal qiymatida (100 so'm) amalga oshiriladi. Jamiyatning amaldagi aksiyadorlari aksiyalarni egallab turgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda sotib olishda imtiyozli huquqqa ega</i>
Ustav kapitalini ko'paytirish emitentning jalb qilingan investitsiyalari, o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.	Qo'shimcha aksiyalarni chiqarish orqali ustav kapitalini ko'paytirish ularni kelishilgan holda bir investor yoki investorlar guruhiga sotish orqali investitsiyalarni jalb qilish, mavjud aksiyadorlarning qo'shimcha aksiyalarni sotib olishi orqali ularning o'z kapitalini jalb qilish va aksiyadorlar yig'ilishining qarori asosida dividendni qo'shimcha aksiyalarni sotib olishga yo'naltirish orqali amalga oshirish mumkin.

Obligatsiyalardan moliyalashtirish instrumenti sifatida foydalanish uchun ularni emissiya qilishga oid qoidalar [9]

Qonun normalari	Izoh
<p>Korporativ obligatsiyalar quyidagi shartlarga rioya etgan holda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi o'z kapitali miqdori doirasida. Agar korporativ obligatsiyalar summasi emitentning o'z kapitali miqdoridan oshsa, emitent oshgan summa uchun ta'minot berishi shart; - so'nggi bir yilda rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgan emitentlar tomonidan; - obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi bir yil uchun moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi mavjud bo'lganda; - investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi. 	<p>Korporativ obligatsiyalar bank kreditlari o'rnini bosuvchi muqobil moliyaviy instrument bo'lib, kompaniyalar o'z faoliyatlarini rivojlantirish uchun doimiy tarzda ulardan foydalanib kelishadi. Kompaniyalar korporativ obligatsiyalarni emissiya qilishlari uchun ularni kapital yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanishi shart. Ko'p hollarda investorlar ishonchini oqlash va qarzlarni qoplay olmaslik (defolt) risklaridan qochish uchun obligatsiyalar kompaniyaning o'z mablag'lari qiymatiga mutanosib ravishda emissiya qilinadi. Obligatsiyalarni chiqarish uchun kompaniyaning so'nggi yillardagi faoliyati ijobiy bo'lgan bo'lishi, barcha ko'rsatkichlarda o'sish bo'lgan bo'lishi kerak. Kompaniya investorlarga obligatsiyalarning nominal qiymati va ular bo'yicha hisoblangan foizlar banklar orqali amalga oshirilishi sababli ko'pincha tijorat banklari anderrayterlar sifatida qatnashadi.</p>
<p>Emitent tomonidan chiqarilgan va so'ndirilmagan (bekor qilinmagan) barcha korporativ obligatsiyalarning nominal qiymati o'z kapitalining miqdoridan oshmasligi kerak.</p>	<p>Kompaniya obligatsiyalarining nominal qiymati o'z kapitali miqdoridan oshiq bo'lishi mumkin emas. Aks holda kompaniya defolt holatiga tushganda investorlarga qarzlarni qaytarish manbasi mavjud bo'lmay qoladi.</p>

Yuqorida qonunchilik normalarining korporativ qimmatli qog'ozlarga bog'liq bo'lgan ayrim bandlelari keltirib o'tilgan bo'lib, ular ko'proq kompaniya tomonidan o'z faoliyatini moliyalashtirishda korporativ qimmatli qog'ozlardan foydalanishda qanday qoidalarga rioya etishlarini ko'rsatadi.

Xulosa

Korxonalarni korporativ qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa korporativ qimmatli qog'ozlarni chiqarish va muomalaga chiqarish korxonalariga tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi, bu esa ularning faoliyatini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Korporativ qimmatli qog'ozlardan samarali foydalanish ularning chiqarilishi va muomalasini tartibga soluvchi huquqiy me'yoriy hujjatlarga rioya qilishni, shuningdek, risklarni minimallashtirish va

korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategiyani ishlab chiqishni talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. IOSCO Objectives and Principles of Securities Regulation. <https://www.iosco.org/library/pubdocs/pdf/IOSCOPD154.pdf>
2. Securities act of 1933. U.S. Securities and Exchange Commission, SEC. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/COMPS-1884/pdf/COMPS-1884.pdf>
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism). 01.03.1997
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining buyrug'i, 16.07.2004 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 1384
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Qimmatli qog'ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to'g'risida. 29.08.1998 yildagi 672-I-son
6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2000-yil 21-martdagi "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-2564-son Farmoni
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2004-yil 6-avgustdagi "Korporativ qimmatli qog'ozlar bilan repo bitishuvlarni amalga oshirish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida. 03.06.2015 yildagi O'RQ-387-son
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining buyrug'i. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida. 30.08.2009 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2000.